

IQTISODIY O‘SISH BOSQICHLARIDA YEVROPA VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING IQTISODIY O‘SISH SURATLARI

Qudratova Zarnigor Mahmudovna

Samarqand iqtisodiyot va serves instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy o‘shish bosqichlari hamda, Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida iqtisodiy o‘shish suratlari haqida so‘z yuritiladi.

Abstract: This article elucidates the various stages of economic growth and delineates the trajectories of economic advancement across European and Central Asian nations.

Аннотация: В этой статье освещаются различные этапы экономического роста и очерчиваются траектории экономического развития в странах Европы и Центральной Азии.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy o‘shish, real YAIM, ekstensiv va intensiv iqtisodiy o‘shish, barqaror rivojlanish.

Key words: Economic growth, real GDP, extensive and intensive economic growth, sustainable development.

Ключевые слова: Экономический рост, реальный ВВП, экстенсивный и интенсивный экономический рост, устойчивое развитие.

Jamiyatdagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishning asosiy yechimi bu iqtisodiy o‘shishni barqarorlashtirishdir. Aholi farovonligini oshirish yakuniy natijada iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta‘minlashga bog‘liq bo‘lib qoladi. Shu sababdan har bir davlatning siyosati mamlakatda iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish va millat farovonligini oshirishga qaratiladi. Iqtisodiy o‘shish tushunchasini ta‘riflashda ko‘plab yondashuvlar mavjud biroq ularning asosini neoklassik va neokeynscha qarashlar tashkil qiladi. Ushbu tushuncha va qarashlar iqtisodiy o‘shish tushunchasining qanchalik murakkab va qarama-qarshi ekanligini va uni bashorat qilish va rag‘batlantirish qanchalik qiyinligini ko‘rsatadi. Bu mavzuning dolzarbligi shubhasiz, chunki mamlakatda iqtisodiy o‘shish birinchi davlat tashkil etilgandan beri ustuvor vazifa bo‘lib kelgan va kamida bitta davlat o‘z faoliyatini davom ettirar ekan dolzarb bo‘lib qoladi.

Iqtisodiy o‘shishni YAIM mutloq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real yalpi YAIM miqdorining ortishi orqali o‘lchash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog‘liq bo‘ladi. Umuman biror davlatning iqtisodiy o‘shishini YAIM mutloq hajmining ortishi orqali o‘lchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YAIM miqdorining ortishi orqali o‘lchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo‘llaniladi. Mamlakatning iqtisodiy o‘shish sur‘atini

tavsiflaydigan mazkur, real yalpi ichki mahsulot va aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulotning o'sishi miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, ular birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o'sishini to'liq tavsiflab berolmaydi; ikkinchidan, real yalpi ichki mahsulot va aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof muhitga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Shunga ko'ra, iqtisodiy o'sishning eng maqbul tavsifi yillik o'sish suratlarining foizdagi o'lchovida to'liq namoyon bo'ladi:

$$O'S = ((YAIM \text{ joriy davr} - YAIM \text{ bazis davr}) / YAIM \text{ bazis davr}) * 100\%$$

bu yerda:

O'S - iqtisodiy o'sish surati, foizda;

YAIM bazis davr - taqqoslanayotgan davr, yildagi real YAIM hajmi;

YAIM joriy davr - joriy davr, yildagi real YAIM hajmi;

Tor ma'noda iqtisodiy o'sish - bu bevosita ishlab chiqarish bosqichida tug'iladigan jarayon bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishning qolgan bosqichlarida barqaror xarakter kasb etadi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning miqdoriy va sifat jihatdan o'zgarishiga, ma'lum bir davrda ijtimoiy mahsulotning ko'payishiga va aholi turmush darajasining oshishiga olib keladi. Keng ma'noda: iqtisodiy o'sish, iqtisodiy rivojlanish mezoni sifatida, o'z mohiyatiga ko'ra, jamiyat taraqqiyotining umumiy trayektoriyasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanad, hamda ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligining o'sishi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabi ko'rsatkichlar bilan farqlanadi.

Iqtisodiy o'sishning ekstensiv (ishlab chiqarish omillarining sifat jihatidan o'zgarmasligi bilan mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish hajmining sof miqdoriy o'sishi) va intensiv (mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish hajmining ko'payishi ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirish) turlari mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi hamda ishsizlik muammolarini yumshatishi kabi bir qator omillar yordamida mamlakatning joriy YAIM hajmini bazis davrdagi foiziga qaraganda oshirishi bilan davlatning barqaror rivojlanish dasturida ahamiyatli omil hisoblanadi.

Amerikalik iqtisodchilar Kempbell Makkonnel va Stenli Bryu tadqiqotiga ko'ra, mamlakatning iqtisodiy o'sishi olti omil bilan belgilanadi:

1. Tabiiy resurslarning miqdori va sifati. Ko'proq mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyati xom ashyoning mavjudligiga bog'liq.
2. Mehnat resurslarining miqdori va sifati. Ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar hajmi va sifati shu omilga bog'liq.

3.Asosiy kapitalning hajmi. Bu omil ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo‘naltirilishi mumkin bo‘lgan mablag‘lar miqdorini cheklaydi.

4.Texnologiyalar. Bu omil tovar va xizmatlarni qanday ishlab chiqarish mumkinligini belgilaydi.

5.Talab omili. Iqtisodiy o‘shish uchun zarur.

6.Samaradorlik omili. Bu omil ham tabiiy, ham inson resurslarini o‘z ichiga oladi. Ulardan shunday foydalanish kerakki, resurslardan foydalanish eng kam xarajat bilan amalga oshiriladi.

Iqtisodiy o‘shishni aniqlovchi funksiyalar mohiyatidan kelib chiqqan holda iqtisodiy o‘shishni belgilab beruvchi quyidagi xususiy ko‘rsatkichlarni ko‘rsatish mumkin:

1) mehnat unumdorligi (Y/L)-mahsulot ishlab chiqarish hajmining jonli mehnat sarflariga nisbati;

2) mehnat sig‘imi (L/Y)—jonli mehnat sarflarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

3) kapital samaradorligi (Y/K) -mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati;

4) kapital sig‘imi (K/Y)—kapital xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

5) tabiiy resurslar samaradorligi (Y /N)—mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan tabiiy resurslar xarajatlariga nisbati;

6) mahsulotning resurslar sig‘imi (N /Y)—tabiiy resurslar sarfining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

7) ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi (K/L) —ishlab chiqarish jarayonida qoplanilayotgan kapital hajmining ishchi kuchi miqdoriga nisbati.

Ohirgi yillarda millatlar aro yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar hamda, ilm-fan, texnologiyalarning tez suratda rivojlanib borishi butun jahon bo‘yicha iqtisodiy o‘shish suratini jadallashtirib yubordi. 2023-yil Jahon Bankining bergan ma‘lumotlariga ko‘ra Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida 2022-yildagi 1.2%dan 2023-yilda 2.7%gacha oshgan. O‘shishning bunday tezlashishiga ichki talabning kengayishi, mehnat bozoridagi barqaror vaziyat hamda Rossiya va Ukrainada yangilangan o‘shish sabab bo‘ldi. Tahlilga ko‘ra:

Прогнозы для стран Европы и Центральной Азии

(изменения в процентах по сравнению с предыдущим годом, если не указано иное)

	2021	2022	2023e	2024f	2025f
ВВП в рыночных ценах (усредненные цены в долларах США за 2010-2019 гг.)					
Албания	8.9	4.8	3.6	3.2	3.2
Армения	5.8	12.6	7.1	4.7	4.5
Азербайджан	5.6	4.6	1.5	2.4	2.5
Беларусь	2.4	-4.7	3.0	0.8	0.8
Босния и Герцеговина ^a	7.4	3.9	2.2	2.8	3.4
Болгария	7.7	3.9	1.7	2.4	3.3
Хорватия	13.8	6.3	2.5	2.7	3.0
Грузия	10.5	10.4	6.5	4.8	4.5
Казахстан	4.3	3.2	4.5	4.3	4.5
Косово	10.7	5.2	3.2	3.9	4.0
Кыргызская Республика	5.5	6.3	3.5	4.0	4.0
Молдова	13.9	-5.0	1.8	4.2	4.1
Черногория	13.0	6.4	4.8	3.2	3.1
Северная Македония	4.5	2.2	1.8	2.5	2.9
Польша	6.9	5.1	0.5	2.6	3.4
Румыния	5.7	4.6	1.8	3.3	3.8
Российская Федерация	5.6	-2.1	2.6	1.3	0.9
Сербия	7.7	2.5	2.0	3.0	3.8
Таджикистан	9.4	8.0	7.5	5.5	4.5
Турция	11.4	5.5	4.2	3.1	3.9
Украина	3.4	-29.1	4.8	3.2	6.5
Узбекистан	7.4	5.7	5.5	5.5	5.5

Источники: Всемирный банк.


Примечание: e = оценка; f = прогноз. Прогнозы Всемирного банка часто обновляются с учетом новой информации и изменения (глобальной) ситуации. Следовательно, представленные здесь прогнозы могут отличаться от прогнозов, содержащихся в других документах Банка, даже в тех случаях, когда базовые оценки перспектив развития стран на ту или иную конкретную дату не различаются существенным образом. В настоящее время Всемирный банк не публикует данных об объеме производства, доходах или экономическом росте в Туркменистане в связи с нехваткой надежных данных надлежащего качества. Туркменистан не учитывается в совокупных межстрановых макроэкономических показателях.

a. Темпы роста ВВП в постоянных ценах рассчитаны производственным методом.

Biroq, agar biz Markaziy Osiyo davlatlari va Turkiyani hisobga olmasak, 2023-yilda YeMO mintaqasida iqtisodiy o'sish 1,8 foiz darajasida sezilarli sekinlashgan. Sekinlashish mintaqaning barcha hududlari bo'ylab tarqalgan va umumiy iqtisodiyotning 78 foiziga ta'sir ko'rsatgan. Yevrohududdagi zaif tashqi talabning ta'siri, ayniqsa, Markaziy Yevropa (submintaqalar orasida eng zaif o'sish — 0,7 foiz) va G'arbiy Bolqonda sezilarli bo'ldi. Iqtisodiy o'sish Janubiy Kavkazda ham sekinlashdi, lekin Markaziy Osiyoda tezlashdi. Pul o'tkazmalari oqimi Armaniston, Qirg'iziston va Tojikistonda talabni saqlab qolishda muhim rol o'ynadi. Sharqiy Yevropada iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari ijobiy qiymatlarga qaytdi. Shunday qilib, Ukrainada o'sish sur'ati 4,8 foizni tashkil etdi. Ushbu ijobiy tendensiyaga qaramay, Ukrainaning 2023-yildagi ishlab chiqarish hajmi Rossiyaning mamlakatga bostirib kirishidan oldingi darajadan 30% pastroq ko'rsatkichda qoldi. Energiya va oziq-ovqat narxlari bosimi pasaygani sababli mintaqadagi inflyatsiya sekinlashdi, lekin hali ham aksariyat mamlakatlarda maqsadli ko'rsatkichdan yuqoriligicha qolmoqda. "Sust iqtisodiy faollik va inflyatsiyaning sekinlashuvi fonida ko'plab mamlakatlarda asosiy stavkalar maksimal darajaga yetdi, bu esa ayrim markaziy banklarning stavkalarni pasaytirishni boshlashiga turtki bo'ldi", — deya qayd etdi Jahon banki va Turkiya hamda Rossiya pul-kredit siyosatida keskinlashuv siklini boshlaganini qo'shimcha qildi.

Shuni alohida takidlash kerakki, Jahon Banki prognoziga ko'ra O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi 2023- yil boshida 4.9% darajasida prognoz qilingan bo'lsa, iyun oyida ko'rsatkichni 5.1% ga, oktabr oyida esa 5.5% ga yaxshilangan. Quyida

davlatimizning iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichi harakati bo‘yicha istiqbolda kutilayotgan rejasini keltiramiz:



Vazirlikning ta'kidlashicha, global o'zgarishlar hisobiga yuqori darajadagi noaniqlikning saqlanib qolinishi Davlat budjetini shakllantirish va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashtirishni murakkablashtirgan. 2023-yilda ichki talabning faol saqlanib qolishiga qaramay iqtisodiy o'sishning sekinlashishi prognoz qilinmoqda. Iqtisodiy o'sish 2022-yildagiga nisbatan pastroq, ya'ni 5,3 foizga prognoz qilinmoqda. Iqtisodiy faollikning tiklanishi hisobiga mos ravishda 2024—2025-yillarda iqtisodiy o'sish 5,6 va 6 foizgacha ko'tariladi. Biroq, noaniqliklar saqlanib qolinayotgan sharoitda turli omilli xatarlar mavjudligi hisobiga ushbu prognozlar beqarorligicha qolmoqda. Iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlarida o'sish sur'ati sekinlashishi kutilmoqda. Sanoatning o'sishi 2023-yilda 5,1 foizgacha, qurilish 6 foizgacha va xizmatlar sohasi 6,7 foizgacha sekinlashadi. Keyingi yillardagi prognozlarga ko'ra, iqtisodiyotning xizmatlardan boshqa barcha

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 23-dekabr Oliy Majlisga Murojaatnomasida Yangilanayotgan Uzbekistonning urta va uzoq muddatlarga mulzhallanganik o'sishning tukkizta ustunligini belgilab berdi va Murozhaatnomaning ohirida halqiga qarata: "Bugun biz ham tanti, sabr-toqat bilan birgakanoatli va megonat bilan birga, sabr-toqat bilan birgamiz marrani baland olmoqdamiz. Oldinda bizni ulkan yutuqlar, katta katta kutmoqda", deb takidladi. Ammo bu marralarni bazharishga halqimiz bor kuch va qudratini, ilmiy va intellektual tashkilotini ayamaidi, deb tulik ishonch bildirdi. Ammo belgilab olgan marraning qiyinligi va qancha mashaqatli bwlmasin, orqaga ywl ywqligini xam qaty takidlab, halqimizga katta ishonch bildirdi. Unda kuyidagi gaplar aytili: "Bir xakikatni hech

qachon unutmilik: biz buyuk tarikh, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan halqimiz.

Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shizhoatli, halqimiz. Barchamiz bir tanu bir zhon bulib, yakdil va ahil bulib harakat qilsak, halol-pok bulib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qandai marralarni egallashga, boshkacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini ya ratishga qodir xalqimiz. Bu yo‘lda qanday qiyinchilik va mashaqqatlar bulmasin, hammasini mardona engib o‘tishga tayermiz. Bunday ezgu ishlarda bizga Yaratganning uzi, buyuk azhdodlarimizning pok ruhlari madadkor buladi, deb ishonaman”, deb takidladi.

Xulosa qilib aytganda, qaror iqtisodiyoti bundan keyin ham zhadal rivozhlanadi. Yukori sur‘atlar bilan iqtisodiy o‘shishga erishiladi. Buning uchun barcha asoslarimiz bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iqtisodiyot nazariyasi darslik Toshkent - 2020 305-320- betlar. .
2. O‘zbekistonning iqtisodiy o‘shishi 2023-yilda 5,5 foizni tashkil etdi — Jahon banki, – [O‘zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz](#)
3. O‘zbekistonda kelgusi yillarda iqtisodiy o‘shish qanday o‘zgarishi kutilmoqda, — [Daryo Yangiliklari](#).
4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy uslubiy risola. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – T.: “Ma’naviyat” nashriyoti,2017.
5. Урунбаева, Ю. П., Нуруллаева, Ш. И. К., Давлатова, Н. Б. К., Истамов, Ш. А. У., & Очилова, Ю. Т. К. (2019). Роль услуг в развитии инновационной экономики. *Достижения науки и образования*, (7 (48)), 15-17.
6. Pirnazarovna, U. Y., & Mahmudovna, Q. Z. (2024). AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA KICHIK TADBIRKORLIKNING O‘RNI. *PEDAGOGS*, 56(1), 59-69.
7. Урунбаева, Ю. (2016). Роль сферы услуг в социально-экономическом развитии страны. *Экономика и инновационные технологии*, (4), 38-46.
8. Урунбаева, Ю. П. (2023). РОЛЬ МАЛОГО БИЗНЕСА В РАЗВИТИИ СТРАНЫ. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(9), 105-108.
9. Урунбаева, Ю. (2024). МЕХНАТ РЕСУРСЛАРИ–МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИДИР. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(2), 644-649.
10. Урунбаева, Ю. П. (2024). ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ АҲАМИЯТИ. *Ustozlar uchun*, 56(1), 186-190.
11. Урунбаева, Ю. П. (2024). ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ–АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛИ. *Ta'lim innovatsiyasi*

- va integratsiyasi, 19(1), 166-171.
12. Урунбаева, Ю. П. (2024). МЕХНАТ РЕСУРСЛАРИ–ТАРАҚҚИЁТИНИНГ БОШ ОМИЛИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 43(3), 57-60.
 13. ТЎРАЕВ, Ш., РЕЖАПОВ, Х., МАХМУДОВ, Ж., МАДИЕВА, З., ЭЛБАЕВА, М., КАМАЛОВА, М., ... & ЖУМАЕВА, М. *Viznes-Эксперт*.
 14. Урунбаева, Ю. П., Химматова, Б. Б., & Уралов, Ш. А. (2019). АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ЎРНИ. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 472-475).
 15. Pirnazarovna, U. Y. (2023). Factors Affecting the Level of Population. *Miasto Przyszłości*, 34, 180-186.
 16. Уралов, Ш. А., Нурматова, С. А., & Урунбаева, Ю. П. (2020). ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ как ГЛАВНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ, ОСНОВАННОЙ НА РЫНОЧНЫХ ОТНОШЕНИЯХ. In *СТУДЕНТ ГОДА 2020* (pp. 105-112).
 17. Pirnazarovna, U. Y. (2023). THE ROLE OF THE SERVICE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY. *American Journal of Business Management, Economics and Banking*, 12, 20-25.
 18. Pirnazarovna, U. Y., & Ismatjonovna, U. M. (2023). SOCIO-ECONOMIC IMPORTANCE OF THE SERVICE SECTOR. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(6), 1-6.
 19. Pirnazarovna, U. Y. (2023). Service Provision and Standard of Living of the Population; Interdependence. *Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777)*, 1(10), 25-27.
 20. Pirnazarovna, U. Y. (2024). THE IMPACT OF MUSEUM TOURISM ON ENHANCING QUALITY OF LIFE. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 4(2), 359-363.
 21. Pirnazarovna, U. Y. (2024). THE THEORETICAL FRAMEWORK FOR MUSEUM TOURISM DEVELOPMENT. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 4(2), 355-358.
 22. Урунбаева, Ю. П. (2016). Перспективы повышения уровня жизни населения на основе развития малого и частного бизнеса. *Научный альманах*, (11-1), 321-326.
 23. Pirnazarovna, U. Y. (2019). The development of service sector is an important factor in creating new jobs and ensuring employment. *Academy*, (12 (51)), 32-38.
 24. Urunbayeva, Y. P. (2019). THE ROLE OF THE SERVICE INDUSTRY IN THE FORMATION OF POSTINDUSTRIAL SOCIETY. In *Colloquium-journal* (No. 26-8, pp. 11-15). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості= Голопристанский районный центр занятости.
 25. Pirnazarovna, U. Y., & O'G'Li, A. S. H. (2019). The role of tourism services on raising the living standards of the population. *Вопросы науки и образования*, (18 (65)), 27-30.
 26. Pirnazarovna, U. Y. (2020). The role of tourism in shaping the quality and standard

- of living of the population. *Academy*, (2 (53)), 13-15.
27. Уралов, Ш. А., & Урунбаева, Ю. П. (2020). Теоретико-методологические проблемы развития сферы услуг. In *ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ГОДА 2020* (pp. 116-123).
28. Umirzakova, M. I., & Baratova, M. I. (2021). THE ESSENCE OF THE SERVICE SECTOR AND THE SOCIO-ECONOMIC SIGNIFICANCE OF RAPID DEVELOPMENT TODAY. *Экономика и социум*, (11-1 (90)), 591-597.
29. Urinboeva, Y. P., Khasanovna, D. D., & Shodmonovna, S. C. (2021). THEORETICAL APPROACHES TO THE FORMATION OF LIVING STANDARDS AND SERVICES OF THE POPULATION. *International journal of trends in commerce and economics*, 11(1).
30. Pirnazarovna, U. Y., & Bakhodirovich, E. D. (2022). THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION AND THE SERVICE SECTOR. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(4), 705-709.
31. Урунбаева, Ю. П. (2023). АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ОШИРИШДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ ЎРНИ. *FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"*, 14(1).
32. Urumbaeva, Y. P., & Raximberdiyev, T. (2023). COMPREHENSIVE ANALYSIS OF POPULATION INCOME LEVELS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(11), 8-14.
33. Pirnazarovna, U. Y. (2024). LABOR RESOURCES-INVALUABLE ASSETS. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 4(2), 443-446.
34. Урунбаева, Ю. П. (2016). СФЕРЫ УСЛУГ И УРОВЕНЬ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ. In *НАУКА СЕГОДНЯ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 97-99).
35. Урунбаева, Ю. П. (2016). Уровня жизни населения это социально-экономическая природа. In *НАУКА СЕГОДНЯ: ФАКТЫ, ТЕНДЕНЦИИ, ПРОГНОЗЫ* (pp. 58-60).
36. Урунбаева, Ю. (2016). Возможности увеличения свободного времени населения на основе развития сферы услуг. *Экономика и инновационные технологии*, (5), 88-93.
37. Урунбаева, Ю. П. (2020). НЕКОТОРЫЕ ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЕ. In *Российская экономика: взгляд в будущее* (pp. 180-185).
38. Урунбаева, Ю. П. (2013). Хизмат курсатиш сохдси ва аҳоли турмуш даражаси: узаро боғлиқлиги ва ривожланиш истикболлари. *Монография. Тошкент: «ФАН», 156.*

